

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SAHNALASHTIRISH
FAOLIYATI ORQALI IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

Daminova Shoxista Farxodovna

JDPU “Maktabgacha va boshlang’ich yo‘nalishlarida masofaviy ta’lim” kafedrası
katta o‘qituvchisi
+998974841880

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sahnalashtirish faoliyati orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning shakl, usul va yo‘llari, o‘zlarini ijodiy qobiliyatlarini “rol o‘ynash”, “qo‘shiq aytish” va “raqsga” tushish orqali o‘zlarini xohish istaklarini va imkoniyatlarini ochib berishi haqida ilmiy va tajribaviy, jarayonlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ijodkorlik, qobiliyat, etika, estetika, axloq nazariya, o‘ziga ishonch, ijodkorlik manbai, ishtrokchilik qobiliyati, sahna faoliyati, rol, sahnalashtirilgan o‘yin, obraz, bolalar sahnasi, musiqa, asar, usul.

Annotation: this article covers the forms, methods and ways of developing children's creative abilities through staging activities in preschool educational organizations, revealing themselves the desires and possibilities of desire by “playing a role”, “singing” and “dancing” their creative abilities, as well as scientific and experimental, processes.

Keywords: creativity, ability, ethics, aesthetics, moral theory, self-confidence, source of creativity, workmanship ability, stage activity, role, staged play, image, children's scene, music, work, method.

Аннотация: В данной статье рассматриваются формы, методы и пути развития творческих способностей детей в дошкольных образовательных организациях посредством постановочной деятельности, научно-экспериментальные и экспериментальные, процессы, позволяющие раскрыть творческие способности и способности к самовыражению посредством “ролевой игры”, “пения” и “танцев”.

Ключевые слова: творчество, одаренность, этика, эстетика, этика теория, уверенность в себе, источник творчества, способность к участию, сценическая деятельность, роль, постановочная игра, образ, детская сцена, музыка, произведение, метод.

Ijodkorlik qobiliyati (ijodkorlik) - bu insonning ongida va xatti-harakatlarida nazarda tutilgan, yangi ma'lumotlar-maxsulotini yaratib, boshqalarga ulashishiga aytiladi. Ushbu tushunchaga ko'ra, nafaqat rasm, mashina, nazariya yaratilishi, balki insonning shaxsiy rivojlanishining barcha faktlari xam yaratuvchi sifatida qaralishi mumkin[1.19] Ba'zi tadqiqotchilar, "ijodkorlik" atamasini qisqartirib, bilimga oid faoliyatni, ya'ni muammoni yoki voqeani yangi yoki noan'anaviy tarzda ko'ra olishni o'z ichiga olgan. bunda san'atning barcha turlari, nafaqat bolalarning badiiy qobiliyatlarini, balki "inson faoliyatining barcha sohasida amalga oshadigan"-ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Sahnalashtirish faoliyatida qatnashish orqali bolalar atrof-olamdagi dunyoni rang-barang tasvirlar va turli xil tovushlar yordamida taniydilar, mohirlik bilan yaratilgan savollar esa ularni tahlil qilish, xulosalar va umumlashtirib berishga undaydi. Qahramonlarning ifodali replikatsiyalari va shaxsiy mulohazalari orqali bolalarning so'z boyligi asta-sekin gavdalanadi.

Bolaning ijro etayotgan roli, ayniqsa boshqa personajlar bilan bo'ladigan suhbatini uning aniq, ravshan va tushunarli so'zlashishiga majbur etadi.

Shunday ekan, sahnalashtirish faoliyati ifodali nutq hamda intellektual va badiiy-estetik tarbiyaning shakllanishiga taalluqli bo'lgan ko'pgina pedagogik masalalarni hal etish imkonini beradi. Shuningdek, u bolaning sezgi, his tuyg'ulari namoyon bo'lishida beqiyos manba hisoblanadi, ma'naviy boyligini oshiradi. Demak, sahnalashtirish faoliyati bolaning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishda zarur bo'lgan shart-sharoit, ya'ni empatiyaning rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi.

Sahnalashtirish faoliyati har qaysi adabiy asar yoki ertak axloqiy yo'nalishga ega ekanligi sababli xulq-atvorning ijtimoiy ko'nikmalar tajribasini shakllantirishga imkon beradi. Pirovardida, bola olamni aql va yurak bilan anglaydi, yaxshilik va yomonlikka nisbatan o'z fikrini bildiradi[2]. Sevimli qahramonlarga taqlid qilish va tenglashish uchun namuna bo'lib qoladi.

Bolaning sevimli obraziga nisbatan aynan shunday tenglashuv qobiliyati pedagoglarga sahnalashtirish faoliyati orqali bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 5. May 2024

Shunday ekan, sahnalashtirish faoliyati bilan bog‘liq mashg‘ulotlar bolalarning har tomonlama yetuk bo‘lishida katta ahamiyatga ega ekan. Aynan shuning uchun maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida olib boriladigan ishlarning tarkibi va usullarining muvaqqat (ibratli) talabida maxsus “Bolaning sahnalashtirish faoliyatida rivojlanishi” nomli bo‘limi ajratilgan[3]. Unda qayd etilishicha, pedagog:

- sahnalashtirish faoliyatida bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish (ijrochilik mahoratini rag‘batlantirish, har bir chiqishda erkin va bemalol harakatini rivojlantirish, mimika vositalari, ifodali harakatlar va intonatsiyalar yordamida improvizatsiyani gavdalantirish va h.k.);

- bolalarni teatr madaniyati bilan tanishtirish (teatr moslamalari, teatr janrlari hamda qo‘g‘irchoq teatrlarining barcha turlari bilan tanishtirish);

- teatr faoliyatining boshqa faoliyat turlari bilan yagona pedagogik jarayonda o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlay bilishi kerak;

Teatr faoliyati bilan shug‘ullanadigan studiyalarda maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari va ota-onalar qatnashishi mumkin. Bu juda muhim, bolalarning va kattalarning hamkorlikdagi ijodiy faoliyatida hayot rejimiga nisbatan an‘anaviy yondashuvni yengib o‘tishga yordam beradi. Sahnalashtirish faoliyatining bunday tashkil etilishi bolalarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarning paydo bo‘lishi, qobiliyat va ijodiylikning rivojlanishiga, balki ularning boshqa guruhdagi bolalar hamda kattalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishlariga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, hamkorlikdagi faoliyat orqali tarbiyalanuvchilar bolalarni, ayniqsa ularning xarakterlari, orzulari va niyatlarini yaxshiroq bilib oladilar. Kichkina bolalarni hurmat qilishga, ular uchun qayg‘urishga, kattalar va bolalar o‘rtasida ishonch paydo bo‘lishiga asoslangan muhit yaratiladi.

Bunday muhit sahnalashtirish faoliyatida bolaning shaxs bo‘lib rivojlanishida asosiy vosita hamda uning shaxsiy bilimlari va ijtimoiy tajribasining manbai hisoblanadi. Bunda ko‘rgazmali - fazoviy muhit bolalarning nafaqat hamkorlikdagi sahnalashtirish faoliyatini ta‘minlaydi, balki har bir bolaning mustaqil ijod qilishi uchun asosiy manba va o‘zini - o‘zi shakllantirish borasida o‘ziga xos muhit hisoblanadi. Shuning uchun sahnalashtirish faoliyatini ta‘minlovchi ko‘rgazmali-fazoviy muhitni loyihalashtirishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

- bolaning shaxsiy ijtimoiy-ruhiy xususiyatlari;
- shaxsiy qiziqishlari, afzal tomonlari va uinig ehtiyojlari;
- ijodiy qobiliyati, qiziquvchanligi va yangiliklarga intiluvchanligi;

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 5. May 2024

- yoshiga xos va rolli o‘yinlar xususiyatlari;[4]

Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy ijtimoiy-ruhiy xususiyatlarini rivojlantirish, shaxsiy qiziqishlari, ehtiyojlari va ishtiyoqlarini amalga oshirish uchun ko‘rgazmali-fazoviy muhit tanlash erkinligi va huquqini ta‘minlab berishi kerak. Shuning uchun sahnalashtirish faoliyatining hududida qo‘g‘irchoq teatrining har xil turlari, bolalar chizgan rasmlari va shu kabilar bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, har xil bolalarning qiziqishlariga mo‘ljallangan materiallar doimiy ravishda yangilanib turilishi kerak. Bularning barchasi esa tarbiyachining har bitta bola bilan alohida-alohida shug‘ullanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Qiziquvchanlik va yangiliklarga nisbatan intiluvchanlikning rivojlanishi spektakl uchun kerakli bo‘lgan atributlar, dekoratsiyalar va kostyumlarni tayyorlashda turli materiallar yordamida yaratish, modellashtirish va sinovdan o‘tkazish uchun barcha imkoniyatlarga asoslanadi, Sahnalashtirish faoliyatining hududida tabiiy materillar, matolar va kostyumlar mavjud bo‘lishi kerak.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini ochib berish uchun bolalarning sahnalashtirish faoliyati bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar, studiyalarga oid ishlar va turli-tuman bayram tomoshalari o‘tkazish uchun maxsus yarim funksiya bajaruvchi maxsus (musiqali va teatr zallari, grim xonasi, ertak xonasi va boshqalar) binolar ham mavjud bo‘lishi kerak[5].

Kichik yoshdagi guruh bolalari uchun eng oddiysi va eng osoni stol ustidagi qo‘g‘irchoq teatri hisoblanadi. Bu kabi teatr uchun qo‘g‘irchoqlarni har qanday mato, porolon, yung va charm bo‘lagidan tikib olsa ham bo‘laveradi.

Stol ustidagi qo‘g‘irchoq teatrini to‘qishning har xil turlarida foydalaniladigan ilgaklar va to‘qish moslamalari bilan bog‘lash mumkin.

Qoshiqlar bilan sahnalashtirilgan teatr bolalarga qo‘g‘irchoqlarni boshqarish yo‘llarini o‘rgatadi.

Maktabga tayyorlovchi guruhlarda bolalar tayoqli va katta-katta ko‘rinishli qo‘g‘irchoqlar bilan tanishadilar. Bunday qo‘g‘irchoqlar qo‘lga taqiladigan qo‘g‘irchoqlardan o‘zining katta o‘lchamdaligi bilan farq qiladi[6].

Ta‘kidlash lozimki, bir vaqtning o‘zida bilim berish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaruvchi sahnalashtirish faoliyati sahna chiqishlarini tayyorlashga hech qanday ta‘sir ko‘rsatmaydi. Ularning mazmuni, shakllari va amalga oshirish usullari uchta asosiy maqsadni bir vaqtning o‘zida amalga oshirishi kerak:

- Teatr va ijro faoliyati ko‘nikmalari va nutqini rivojlantirish;
- Ijodkorlik muhitini yaratish;
- bolalarni ijtimoiy va hissiy jihatdan rivojlantirish.[7]

Sahnalashtirish faoliyatining mazmuni nafaqat adabiy asar yoki ertak matni bilan tanishish, balki yuz ifodalari, harakat, kostyum va boshqalar, ya’ni ifodali o‘qishda muhim ahamiyatga bo‘lgan “belgilar” bilan ham tanishishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, bolalarning sahnalashtirish faoliyatini rivojlantirish va ularning ruhiy-sezgi tajribalarini jamlash – ota-onalarni ham jalb etilishini talab qiladigan uzoq muddatli ish hisoblanadi. Mazkur masala bo‘yicha kattalar manfaatlarini faollashtirishga kattalar va bolalar bir xil ishtirokchi sifatida qatnashuvchi mavzuga oid kechalar yordam beradi. Sahnalashtirish faoliyati bolalarning ma’naviy va ijodiy salohiyatini namoyon etadi va ularga ijt imoiy muhitga moslashish imkoniyatini beradi. O‘qitish va tarbiyalashda kreativ tamoyillarga, ya’ni bolalarning ijodiga, ruhiy-jismoniy hissiyotlariga va shaxs erkinligiga maksimal ravishda e’tibor berish juda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” davlat dasturi.Toshkent. 2018 y
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O‘zbekiston, 2016. 2. Yusupova P.
3. D.Q.Asqarova “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” (Metodik qo‘llanma) Namangan 2018 y.
4. Ye.A.Antipova. Maktabgacha ta’lim muassasasida teatrlashtirilgan faoliyat. – M.: TS«Sfera», 2006 y.
5. M.D.Maxanyova. Maktabgacha ta’lim muassasasida teatrlashtirilgan faoliyat darslari. –M.: TS «Sfera», 2007.
6. Tosheva N. T., Mustafoyeva M. S. REGISTRATION OF AGE AND INDIVIDUAL CHARACTERISTICS IN EDUCATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM European Scholar Journal (ESJ) Vol. 2 No. 4, April 2021, 85-90 betlar
7. F.Qodirova, Sh.Toshpulatova, M.A’zamova “Maktabgacha pedagogika”. –T.: “Ma’naviyat”.2013